

# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM


CONFERENCES.UZ

# 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.  
 +998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00  
 WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ

 AVGUST №55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

**1. Abduvaliyev Ortiq Abdulhamidovich**  
YOSHLARNING IJTIMOY HAYOTDAGI FAOLLIKLARINI INNOVATSION ASOSDA  
TASHKIL ETISH .....7



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### YOSHLARNING IJTIMOY HAYOTDAGI FAOLLIKLARINI INNOVATSION ASOSDA TASHKIL ETISH

**Abduvaliyev Ortiq Abdulhamidovich**  
Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU erkin tadqiqotchisi

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolliklarini innovatsion asosda tashkil etish masalalari o'rganilgan. Bunda asosan yoshlarning innovatsion faolliklarini tashkil etish ijtimoiy siyosatning asosiy vazifasi ekanligiga alohida to'xtalib o'tilgan va yoshlarning ijtimoiy hayotdagi pozitsiyasini shakllantirish orqali innovatsion faolligini tashkil etish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, innovatsion faoliyat, qadriyat, davlat ijtimoiy siyosati, hayotiy pozitsiya, jamiyat, demokratiyalashuv jarayonlari, axloqiy tafakkur.

Yoshlarning innovatsion faolliklari jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq jarayondir. Yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolliklarini innovatsion asosda tashkil etish jamiyatning umumiy taraqqiyot tendensiyalarini vujudga keltirishda muhim omil bo'ladi, mazkur jarayonning mohiyati va uning ahamiyatini yoshlar orasida tushuntirishda davlat va jamoat tashkilotlarining rolini oshirib borish lozim. Yoshlarning innovatsion faolliklarini oshirish ijtimoiy siyosat bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Davlatda ijtimoiy siyosatning bevosita yoshlar guruhlariga qaratilgan qismini amalga oshirishning jadal sur'atlarini vujudga keltirish ularning manfaatlarini, huquqlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqaradi.

Mamlakatimizda 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar hisoblanadi. Aholi soniga nisbatan oladigan bo'lsak yoshlar miqdori 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunga keltirilgan izohlarda, 14 yoshdan-30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar O'zbekiston aholisining 33.3 foizini tashkil etgan. Bugungi kunda esa bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etmoqda.[1]

Bugungi kundagi o'zgarishlar, jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy qiyofasidagi ijobiy tendensiyalar yoshlarning ijtimoiy ishdagi o'z pozitsiyalarini tubdan o'zgartirishga rag'bat bermoqda. Mazkur jarayonlar yoshlarning maqsad va muddaolari, ijtimoiy qarashlari, tashabbusli yondoshuvlari va ma'naviy mo'ljallarida o'z ifodasini topmoqda. Bu esa, yoshlarimizning iqtisodiy harakatchanligi va innovatsion tashabbuslarining oshishi, ya'ni ijtimoiy mobillik darajalarining yuksalishiga sabab bo'lmoqda. Davlat yoshlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishlari, ularning innovatsion va ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni o'z zimmasiga oladi. Bu jarayon yoshlarga oid davlat siyosatida o'z aksini topadi.

Innovatsion va ijtimoiy tashabbuskorlik faoliyati yoshlarning jamiyat manfaatlarini ta'minlashga oid qarashlari, ideallari va tasavvurlarini boyitadi va vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltiradi. Mazkur jarayon, T.Mamatqobilovning qayd etishicha, "jamiyatning moddiy-ma'naviy qiyofasini belgilash bilan birga mamlakat fuqarolarining ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tafakkur va dunyoqarashiga, ruhiy kechinmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shuning o'zi davlat bilan fuqaro, hokimiyat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlarning adolatga tayangan holda uyg'unlashib ketishi uchun imkoniyatni yaratadi".[2]

Oldingi davrlarda yoshlarning hududlarda innovatsion faollik, ya'ni yangiliklar yaratishga bo'lgan tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmagan, tegishli asoslarda rag'batlantirilmagan bo'lsa, bugunga kunda mamlakatda o'tkazilayotgan keng qamrovli islohotlarga hamohang ravishda yoshlar faolligi har sohada to'liq namoyon bo'lmoqda, ularning bunyodkorlik sa'y-harakatlariga to'liq shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Bu esa, yoshlarning demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq tamoyillarni chuqur o'zlashtirayotganligi va unga amal qilish ko'nikmalarining oshib borayotganligida namoyon bo'lmoqda.



Olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida yoshlarning zamonaviy sifatli ta'lim olish, dunyo ilmiy-innovatsion yutuqlaridan bahramand bo'lishga intilishlari kuchayib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarini modernizatsiya qilish, tizimni jahon standartlariga moslashtirish borasida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Misol uchun oliy ta'lim sohasida o'quv muassasalari soni bundan yetti yil oldin 65 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 185 taga yetganligi yoshlarning ilmiy va innovatsion ko'nikmalarini oshishi va ularning qamrov darajalarini yuksalib borayotganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi muassasalarning moddiy-texnik ta'minoti yuksakligi, ularni zamonaviy tarzda ta'mirlanib, jihozlanganligi, axborot va smart texnologiyalarining talabalar uchun to'liq havola etilganligi ularning innovatsion dunyoqarashini oshirmoqda, ijtimoiy voqelikka yangicha rakurs bilan qarashlariga sabab bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalari qoshida zamonaviy texnoparklar, eng oxirgi texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar va eksperimental markazlar yoshlarning ilmiy ko'nikmalarini oshishida muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi qadriyatlar tizimida umumiy, yalpi madaniyat, uzviy mentalitet, umumiy qarashlar vujudga kelmoqda. Yoshlarning o'z-o'zini anglash darajalari oshib bormoqda, milliy manfaatlarning umumiy tamoyillarini o'zlashtirish darajalari kengaymoqda. Natijada yoshlar o'zlaridan oldingi katta avlod vakillariga o'ziga xos ko'makchi, munosib vorisga aylanmoqda. T.Luchkinaning qayd etishicha, “Jamiyatning demokratlashuvi ijtimoiy o'zgarishlarning yangicha salohiyatga ega bo'lgan manbai sifatida ta'lim tizimini innovatsion asosda yangilashni kun tartibiga qo'yimoqda. Jamiyatni insoniyalashtirish va insonparvarlashtirish ijtimoiy taraqqiyotining asosiy hal etuvchi tamoyili sifatida maydonga kelmoqda. Yangicha va doimiy o'zgarishlar sharoitiga moslashishga harakat qiladigan, muntazam o'zini o'zi takomillashtirib boradigan mukkamal insonni tarbiyalash ehtiyoji vujudga keldi”. [3]

Yoshlar jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziflarni hal etishda o'zlarining mas'uliyatini chuqur anglab yetsa, ularda innovatsion faollik yuksaladi. Agar bu jarayonni empirik jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, yoshlar innovatsion faolligi tizim sifatida shakllanib, o'ziga yarasha ma'lum ijtimoiy-intellektual muhit hosil qiladi. Yoshlar innovatsion faolligi bir xil ko'lamda namoyon bo'lmasdan, yuqori, o'rta va kichik darajalarda mavjud bo'ladi.

Yuqori darajadagi innovatsion faollik. Bu jarayonda yoshlarda kuchli innovatsion tashabbuskorlik, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar, ko'nikmalar, tajribalar hamda huquqiy me'yorlarni chuqur egallash, kreativ fikrlash, yuqori eruditsiya, vaziyatni tezkor baholash, ilg'or ilmiy g'oyalarni ilgari surish, intellektual qobiliyatning yuqoriligi, jamiyat ishi uchun doimiy tayyorlik va boshqa fazilatlarga ega bo'ladi. Yuqori darajadagi innovatsion faollik jamiyatga o'zining katta naf keltirishi va belgilangan dasturiy maqsadlarga tezroq erishishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fazilova D.X., Rashidova G. Europe, science and we international scientific and practical conference. Publishing House “Education and Science”. Iyul, 2020. Praha, Czech republic. P 189.

2. Mamatqobilov T. Demokratiyaning asosiy sharti-tinch va osoyishta yashash huquqidir. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 3-son, 2019-yil, 19-bet.

3. Лучкина Т. Роль инновационной деятельности в личностно-профессиональном саморазвитии молодого педагога. // Автореферат диссертации на соисканию кандидата педагогических наук. Хабаровск, 2000.

4. Fazilova D.X. The concept of socio-political image of youth and its significance. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). ISSN( Online): 2455-3662. Vol 6, Issue 9, September 2020, Impact Factor: SJIF 2020-7.032. p 348.



# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 2-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2023

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000